
Nomzodlarga rozilik bildirildi

Qonun ustuvor yurtda adolat hamisha muqarrar bo'ladi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mamlakatimiz sud-huquq tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, sudpyalikka nomzodlarni tanlash hamda lavozimiga tayinlash tizimini tubdan takomillashtirish, yuqori malakali sudpyalar korpusini shakllantirish maqsadida yangi konstitutsiyaviy organ - O'zbekiston Respublikasi Sudpyalar oliy kengashi tashkil etildi. Mamlakatimiz tarixida ilk bor sudpya lavozimiga muddatsiz tayinlash amaliyoti joriy qi-lindi.

Farg'ona shahar hokimligi majlislar zalida bo'lib o'tgan yig'ilishda sudpyalik lavozimiga tayinlanayotgan nomzodlarga jamoatchilikning roziligi olindi.

Yig'ilishni olib borgan sha-har hokimining birinchi o'rinbosari U.Karimov Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning shu yil 13 iyun kuni sudpyalar korpusi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlab o'tgan sud-huquq tizimidagi ustuvor vazifalarga hamda soha xodimlarining kasbiy faoliyatiga oid bildirgan fikrlariga atroflicha to'xtalib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Sudpyalar oliy kengashi a'zosi D.Abdusattorov jinoyat ishlari bo'yicha Farg'ona viloyat sudining sudpyalari lavozimiga munosib deb topilgan nomzodlar Vaxobov Tojiddin Sharofidinovich, Arapov Rahmatjon Ergashovich, sudpyalik lavozimiga ilk bor tayinlanayotgan nomzodlar Umarov Shoyadjon Hayotjonovich, Xo'jamberdiev Jamshid Abduhamidovich, Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining sudpyasi lavozimiga nomzod Jo'raev Elbek Mamurovichning tarjimai holi, ma'naviy-axloqiy, kasbiy fazilatlariga haqida ma'lumot berib o'tdi.

Farg'ona shahar jamoatchiligi sudpyalikka tayinlanayotgan nomzodlar haqida ijobiy fikr-lar bildirishdi va ular nomzodini qo'llab-quvvatladilar.

Nomzodlar o'zlariga bildirilgan ishonchni halol mehnatlari va adolat mezonlariga tayangan holda oqlashlarini ta'kidlashdi.

2018-03-09 21:07:09